

UO'K(UDC, УДК): 81-26

OYBEK ASARLARI TARJIMALARIDA TOVUSHGA TAQLID SO'ZLARNING BERILISHI¹⁸

Rasulova Kamola Patxillayevna

2-bosqich tayanch doktoranti,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: rasulovakamola_0120@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-5728-7444

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Oybekning “Qutlug‘ qon” va “Navoiy” romanlaridagi tovushga taqlid so‘zlar (onomatopeya) badiiy ifodaning muhim elementi sifatida tahlil qilingan. Mazkur so‘zlarning asardagi vazifasi voqealar va qahramonlar ruhiyatini jonlantirish, sahnalar dinamikasini kuchaytirishdir. Maqolada onomatopeyalarning asliyat matnida va turk tilidagi tarjimalarida berilishi, ular orqali badiiy uslub va fonetik boylikning qanday saqlangani yoki qisqargani ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tarjimalarda mazmuniy ekvivalentlik ko‘p hollarda saqlansa-da, tovushga taqlid so‘zlarning o‘ziga xos ohang va hissiyotini to‘liq yetkazishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi aniqlangan. Shuningdek, tarjima jarayonida ba‘zan fonetik va uslubiy jihatdan boy ifodalar kamroq aks etishi kuzatiladi. Bu esa, asarning badiiy mazmun jihatidan to‘laqonli tarjima vazifasini bajarmasligiga olib keladi. Tadqiqotda onomatopeyaning tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklari va badiiy mahorat bilan yetkazilishining ahamiyati ta‘kidlangan. Bu holat tarjima nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, adabiy tarjima uchun dolzarb masala ekanligi ko‘rsatilgan. Maqola tovushga taqlid so‘zlarning badiiy-ma‘naviy vazifasini, tarjimada mazmuniy va fonetik ekvivalentlikni saqlash muammolarini yoritadi.

Oybek asarlaridagi onomatopeyalar tarjimada mazmuniy ekvivalentlikni asosan ta‘minlagan bo‘lsa-da, fonetik va stilistik rang-baranglik ko‘pincha qisqarib qoladi. Bu esa o‘zbek tilidagi onomatopeyalar ritm va ohangdorlikni kuchaytiruvchi badiiy vosita sifatida ko‘proq imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

KALIT SO‘ZLAR

Onomatopeya, Oybek asarlari, badiiylik, tarjima, funksiya, ekvivalentlik.

Received: August 20, 2025

Accepted: September 8, 2025

Available online: November 16, 2025

¹⁸ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rasulova K. Oybek asarlari tarjimalarida tovushga taqlid so‘zlarning berilishi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 241-258.

THE RENDERING OF ONOMATOPOEIC WORDS IN TRANSLATIONS OF OYBEK'S WORKS

Rasulova Kamola Patkhillayevna

PhD student of

Tashkent State University of Oriental Studies,

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: rasulovakamola_0120@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-5728-7444

ANNOTATION	KEY WORDS
This article analyzes sound imitation words (onomatopoeia) in Oybek's novels "Qutlug' qon" ("Sacred Blood") and "Navoiy" as a crucial element of artistic expression. The function of these words in the works is to animate events and characters' psyche, and to intensify the dynamics of scenes. The article examines, on a scientific basis, how onomatopoeia is presented in the original text and Turkish translations, and how artistic style and phonetic richness are preserved or diminished through them. Although semantic equivalence is often maintained in translations, challenges arise in fully conveying the specific tonality and emotions of sound imitation words. Additionally, in the translation process, it is sometimes observed that phonetically and stylistically rich expressions are less effectively rendered. This results in the work not fully achieving a comprehensive translation in terms of artistic content. The study emphasizes the challenges that onomatopoeia presents in translation and the importance of conveying it with artistic skill. It is demonstrated that this issue is crucial for translation theory and practice, as well as literary translation. The article highlights the artistic and spiritual function of sound imitation words and the problems of preserving semantic and phonetic equivalence in translation. While the onomatopoeia in Oybek's works largely maintains semantic equivalence in translation, the phonetic and stylistic diversity is often reduced. This demonstrates that onomatopoeia in the Uzbek language possesses greater potential as an artistic device for enhancing rhythm and melodiousness.	Onomatopoeia, Oybek's works, artistic expression, translation, functionality, equivalence.

ПЕРЕДАЧА ЗВУКОПОДРАЖАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В ПЕРЕВОДАХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЙБЕКА

Расулова Камола Патхиллаевна

докторант,

Ташкентский государственный

университет востоковедения,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: rasulovakamola_0120@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-5728-7444

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе научного наследия В данной статье анализируется оноματοпея, являющаяся важным элементом художественной выразительности в романах Айбека «Великая кровь» и «Навои». Функция этих слов в произведении заключается в создании более оживленной атмосферы описываемых событий и придании жизненной достоверности изображаемым персонажам, в усилении динамизма сцен. В статье на научной основе рассматривается использование оноματοпеи в оригинальном тексте и в турецких переводах с узбекского, а также удачные примеры сохранения с ее помощью художественного стиля и фонетического богатства оригинала и случаи неудачного перевода. Хотя семантическая эквивалентность в переводах часто сохраняется, в результате анализа также установлены трудности, препятствующие передаче в полной мере особого тона и эмоциональности, которые придает оригинальному тексту при помощи оноματοпеи. В работе также отмечается, что иногда фонетическое богатство и стилистические оттенки в переводах сохраняются не полностью. Это приводит к тому, что перевод не является достаточно полноценным с точки зрения сохранения в нем всей глубины художественного содержания. В исследовании комментируются трудности, которые вызывает перевод оноματοпеи, а также подчеркивается важность их преодоления с помощью развития навыков художественного перевода. Показано, что эта ситуация является актуальной проблемой как для общей теории и практики перевода, так и для перевода литературно-художественных произведений. В статье освещаются художественная и психологическая функции звукоподражательных слов, проблемы сохранения смысловой и фонетической эквивалентности при переводе.

Хотя переводы оноματοпеи, использованной в произведениях Айбека, в основном обеспечивают смысловую эквивалентность, фонетическое и стилистическое богатство оригинала часто не сохраняется в полном объеме. Это свидетельствует о том, что оноματοпея в узбекском языке обладает большим потенциалом как художественное средство усиления ритма и мелодичности.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Оноματοпея, произведения Айбека, художественность, перевод, функциональность, эквивалентность.

KIRISH

Ma'lum bir tovush yoki harakat-holat tilda "so'z" maqomini olishi uchun, avvalo, fonetik jihatdan shakllanishi va nutqda qo'llanishi lozim. O'zbek tilshunosligida taqlid so'zlar dastlabki o'rganish bosqichlaridanoq ikki guruhga ajratib tadqiq etiladi: tovushga taqlid so'zlar hamda harakat-holatni ifodalovchi (obrazli) taqlid so'zlar. Ushbu maqolada taqlid so'zlarning yirik turkumlaridan biri – tovushga taqlid so'zlar – o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Oybek asarlari va uning turk tiliga tarjimalari misolida tahlil qilinadi. Adib ijodida o'zbek xalqining turmush tarzi, yashash muhitlari, orzu-umidlari va hasrat-armonlari yorqin aks etadi. Adib asarlarida badiiylilikni oshirish, qahramonlarning ichki dunyosini ochib berish maqsadida taqlid so'zlardan, ayniqsa, tovushga taqlid so'zlardan keng foydalanadi.

Onomatopeya (tovushga taqlid so'zlar) adabiy matnning badiiy ifoda vositalaridan biri sifatida obrazlilik, tasviriylilik va emotsional kuchni oshirishga xizmat qiladi. U o'quvchining nafaqat tasavvurini, balki sezgi organlarini – ayniqsa eshitish sezgisini ham harakatga keltiradi. Oybek kabi badiiy tafakkuri chuqur, obrazlar orqali ruhiy holatlarni uzatishga qodir yozuvchi asarlarida onomatopeya badiiylilikni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida e'tiborga molik.

ASOSIY QISM

Taqlid so'zlar til tizimida semantik va struktur jihatdan alohida qatlamni tashkil etib, ular inson, hayvon hamda turli jonli va jonsiz predmetlarning tovushi yoki tashqi ko'rinishi, holat-harakatini taqlid asosida ifodalash xususiyatiga ega. Ular mazmuniy-funksional nuqtayi nazardan ikki guruhga bo'linadi:

1. Tovushga taqlid so'zlar (onomatopeyalar) – eshitish sezgisi orqali idrok etiladigan tovushlarni ifodalovchi birliklar bo'lib, ular tashqi muhitda yuz beruvchi turli akustik hodisalarning lingvistik ifodasidir (masalan, qars-qurs, taq, duk-duk, g'iyq, miyov).

2. Obraz (tasvir)ga taqlid so'zlar – ko'rish sezgisi orqali idrok qilinadigan voqea-hodisa, holat yoki harakatlarning taqlid so'zlari bo'lib,

ular vizual tasvirni lingvistik shaklda ifodalaydi (masalan, jivir-jivir, lip-lip, yalt-yult, hang-mang).

Demakki, tovushga taqlid soʻzlar akustik sezgi, obrazga taqlid soʻzlar esa vizual sezgi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ular tilning ifoda imkoniyatlarini boyituvchi muhim leksik qatlamni tashkil etadi.

A. N. Kononov oʻzbek tilida taqlid soʻzlarning tarsil-tarsil, vovul-vovul, poʻngʻul-poʻngʻul kabi formalari haqida ham gapiradiki, bu albatta, shubhadan xoli emas. Muallif vovul, poʻngʻul, tarsil kabi taqlid soʻz formalari vov, poʻng, tars oʻzaklariga “-il” elementining qoʻshilishi asosida paydo boʻlganligini toʻgʻri koʻrsatadi. Lekin bu negizlar oʻzbek tilida mustaqil qoʻllanmaydi. Ular yoki vov-vov, tars-tars, poʻng kabi boshlangʻich holatda yoki vovulla, tarsilla, poʻngʻir-poʻngʻir, poʻngʻilla kabi formalarda ishlatiladi (Kononov A., 1948, 136).

Olim R. Qoʻngʻirov oʻzining “Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar” nomli monografiyasida tilimizdagi taqlidiy soʻzlarni ikki guruhga boʻlib tadqiq etgan (Qoʻngʻurov R., 1966, 154). Ular quyidagilar: tovushga taqlid soʻzlar va obrazli soʻzlar. Monografiyada tovushga taqlid soʻzlar ham oʻz ichida dastlab ikki qismga boʻlinadi: jonli predmetlar tovushlariga taqlid va jonsiz predmetlar tovushlariga taqlid deb ikkiga boʻlib oʻrganilgan. Jonli predmetlar tovushlariga taqlid soʻzlar ham turli xil ichki boʻlinishlarni oʻzida aks etadi: kishilarning harakatlaridan paydo boʻlgan tovushlarga taqlid soʻzlar, turli xil hayvon va jonivorlar tovushiga taqlid soʻzlar va parrandalar tovushiga taqlid soʻzlar kabi.

Jonsiz predmetlar tovushiga taqlid soʻzlar ham oʻz navbatida ichki boʻlinishlarga ajratiladi: qattiq predmetlar tovushiga taqlid soʻzlar, har xil mexanizmlar, motorlar, transport kabilarning harakatidan va qurollardan oʻq uzish paytida paydo boʻlgan tovushlarga taqlid soʻzlar, boshqa predmetlarning tovushiga taqlid natijasida hosil boʻlgan soʻzlar, gazsimon predmetlar va suyuqliklar harakatidan paydo boʻlgan tovushlarga taqlid soʻzlar kabi boʻlinishlari keltiriladi va bunday soʻzlar atroflicha tadqiq etiladi (Nuraliyev Gʻ., 2024, 97).

Jonli predmetlar tovushlariga taqlid:

- 1) Odamdan chiqadigan tovushlarga taqlid qilish: yoʻtalmoq,

qichqirmoq, xirillab kulmoq, pishillamoq;

M: “Bir majlisda Alisherning menga qaratgan mutoyibasiga shul onda javob bergan edim, bag‘oyat xafa bo‘libdilar, qih-qih kulib gapirdi Shahobiddin” (Oybek, 2004, 188).

A. Botur Tarjimasi: “Bir mecliste Ali Şir’in banaalayli takilmasinaanında karşılık vermiştim de, beyefendileri bayağı üzölmüşlerdi, –diye karşılık verdi Şehâbeddin kah-kah gülerek” (Aybek, 1995, 174).

Asliyatdagi “... qih-qih kulib gapirdi Shahobiddin” jumlasidagi “qih-qih” tovushga taqlid so‘zi ixcham, biroz keskin va kinoyali kulgini ifodalaydi. Odatda, “qih-qih” kulgi yengil, ozgina istehzoli yoki piching aralash ohangni bildiradi. Fonetik jihatdan “qih” undoshi (q) qattiqroq, jarangli talaffuz beradi, bu esa kulgiga bir oz qo‘polroq, keskinroq ohang yuklaydi. Tarjimada esa “... diye karşılık verdi Şehâbeddin kah-kah gülerek” ya’ni “kah-kah” onomatopeyasi ishlatilgan. “Kah-kah” turk tilida qattiq qahqahani bildiradi, ya’ni kuchli, baland va baralla kulgini anglatadi. Bu so‘z ko‘proq ochiq va qo‘shiqdek eshitiladigan kulgini ifodalaydi. Emotsionallik jihatidan “Qih-qih” → istehzoli, kinoyali yoki “soxta kulgi” ohangiga ega bo‘lsa, “kah-kah” → samimiyroq, ochiq va kuchli kulgini ifodalaydi. Badiiylikdagi farq shundaki, Oybek matnida Shahobiddinning kulgisi nozik kinoya va istehzo bilan ifodalanadi. Tarjimada esa u kuchli qahqahaga aylantirilgan, ya’ni kulgining ohangi yumshab, ma’lum darajada semantik siljish yuz bergan.

1-jadval:

№	Oybek asarlarida “kulmoq” fe’lining tovush taqlidiga misollar:	
1.	Qix-qix-qix... – kuldi Majididdin qora quyuq soqolini serkillatib (Oybek, 2004, 35).	Hı-hı-hı... diye güldü Mecdiddin kara, kesif sakalını sallayarak (Aybek, 1995, 29).
2.	Ham o‘zi dilkash yigit. Ishni puxta qiladi. Bir aybi shuki, cho‘loq. Xax-xax-xa (Oybek, 2023,80).	Bir de tatlı dilli delikanlı. İşini sağlam yapar. Bir deayıbı var, o da topal olması. Ha ha ha (Aybek, 2023, 89).
3.	Har ikki g‘azalxon xaxolab kulib yuborishdi (Oybek, 2004, 452).	İki gazelhan kahkahayla gülüştüler (Aybek, 1995, 427).
4.	Keyin yaxday sovuq, sun’iy “ qih-qih ” qilib kuldi (Oybek, 2004, 270).	Sonraoldukça soğuk ve yapmacık bir tebessümle“ kıh-kıh ”edip güldü (Aybek, 1995, 252).

Jadvaldagi asliyat va tarjimadagi onomatopeyalarni qiyoslab tahlil qilamiz:

1-misol

Asliyat: “Qix-qix-qix...”

Qisqa, keskin va biroz kinoyali kulgi ifodasi.

“Q” undoshi kulgini qattiqroq va og‘irroq eshittiradi.

Tarjima: “H1-h1-h1...”

Yumshoqroq va mayin ohangdagi kulgi.

Fonetik jihatdan “qix”dagi qattiq talaffuz yo‘q, kulgi “yumshoq jilmayish”ga yaqinlashgan.

Xulosa: Tarjimada kulgi ohangi yumshatilgan, istehzoli keskinlik yo‘qolgan.

2-misol

Asliyat: “Xax-xax-xa”

Qahqaha aralash, ochiq va quvnoq kulgi.

“X” undoshi kuchli jarang berib, kulgini jonli qiladi.

Tarjima: “Ha ha ha”

Turk tilidagi eng odatiy qahqaha ifodasi.

Oddiyyoq va tabiiyyoq eshitiladi.

Xulosa: Semantik ekvivalent saqlangan, ammo fonetik rang-baranglik biroz soddalashgan.

3-misol

Asliyat: “xaxolab”

Ovozli, samimiy va jo‘shqin kulgini bildiradi.

Tarjima: “kahkahayla”

To‘g‘ridan-to‘g‘ri “qahqaha bilan” deb tarjima qilingan.

Bu yerda onomatopeya emas, balki tavsiflovchi so‘z ishlatilgan.

Xulosa: Tarjima semantik jihatdan to‘g‘ri, ammo onomatopeyaning fonetik ta’sirchanligi yo‘qolgan.

4-misol

Asliyat: “qih-qih”

Sun'iy, soxta kulgini bildiradi.

Qattiqroq ohang bilan biroz istehzoli kayfiyatni beradi.

Tarjima: “k1h-k1h”

Fonetik jihatdan juda yaqin.

Ma'nodagi “soxta, sun'iy kulgi” ohangi ham saqlangan.

Xulosa: Tarjimada eng muvaffaqiyatli ekvivalent tanlangan, mazmun va fonetika deyarli to'liq mos tushgan.

2) qush tovushlariga taqlid qilish: sayramoq, shirillamoq;

M:Chiroyli qafasdagi bir juft oq qumrining onda-sonda g'u-g'usi sukunatni hazin, ma'nodor chayqatardi” (Oybek, 2004, 445).

A. Botur Tarjimasi: “Güzel kafesteki bir çift muhabbet kuşunun tatlı şakırtısından başka çıt çıkmıyordu” (Aybek, 1995, 421).

Yuqoridagi “... bir juft oq qumrining onda-sonda g'u-g'usi sukunatni hazin, ma'nodor chayqatardi” jumlasida oq qumri – kabutarlarga mansub, musicha oilasiga kiruvchi qush tasvirlangan. Onomatopeya: “g'u-g'u” – aynan kabutarning tabiiy, past ohangli, takroriy, biroz sokin va hazin tovushi. Adibning mazkur tasviri sokinlikni buzib, o'quvchida mayin g'amgin kayfiyat uyg'otadi. A. Botur tarjimasida esa “... bir çift muhabbet kuşunun tatlı şakırtısından başka çıt çıkmıyordu” jumlasidagi muhabbet kuşu – to'tiqush oilasiga mansub. Onomatopeya/ifoda: “şakırtı” turk tilida qushlarning jarangdor, shirin sayrash. Bu tovush balandroq, tez-tez takrorlanuvchi, musiqiy tovush. Tarjimada sukutni buzuvchi, shodon va musiqiy ovoz sifatida taqdim etilgan.

Asliyatda oq qumri (kabutar) tasvirlangan, uning ovozi past va hazin. Tarjimada esa muhabbet kuşu (to'tiqush) keltirilgan, u odatda baland, quvnoq sayrash bilan mashhur. Tarjimon kabutarning sokin ovozini to'tiqushning jarangdor ovozi bilan almashtirgan. Asliyatdagi “g'u-g'u” bevosita kabutar tovushining fonetik aks-sadosi. Tarjimadagi “şakırtı” umumiy qushlarning shirin sayrash, lekin kabutarning tabiiy “g'u-g'u” ovozini bermaydi. Asliyatdagi ovoz hazin, ma'nodor, sokin ohangda eshitiladi. Tarjimada esa ovoz musiqiy va jonli tarzda talqin qilingan. Natijada, asliyatdagi ma'yus kayfiyat tarjimada shodon ohangga aylanib ketgan.

Tarjimada nafaqat onomatopeya (g‘u-g‘u – şakırtı), balki qush turi ham o‘zgartirilgan (kabutar – to‘tiqush). Asliyatdagi sokin va hazin ruh tarjimada quvnoq va musiqiy talqinga almashgan.

Yuqorida eslatganimizdek, bir qator qushlarning nomlari ularning tovushlariga istiora qilingan: toq-toq (bu qizil ishton ham deb yuritiladi), biyov-biyov, jir, tra-tra kabi. Bunday hodisalar boshqa tillarda ham uchraydi. Masalan, rus tilida kukushka, belorus tilida turlishka, koreys tilida pokkuk (Добровольский В., 1894, 81-92).

3) hayvonlar tomonidan chiqarilgan tovushlarga taqlid qilish: ma’ramoq, vovlamoq;

M: “Ichkari kirishning ilojini topmay, eshik tagida miyovlagan mushukbachchadek, bu qal’a ostida hali ko‘p sarson bo‘lasenlar!” (Oybek, 2004, 451).

A.Botur tarjimasi: “İçeri girme imkânı bulamayıp kapı eşiğinde miyavlayan kediler gibi bu kale önünde daha çok dolaşırsın!” (Aybek, 1995, 427).

Asliyatdagi “... eshik tagida miyovlagan mushukbachchadek ...” jumlası “... kapı eşiğinde miyavlayan kediler gibi ...” tarzida tarjima qilinib, miyavla- (turk tilida ham mushukning tovushini ifodalash uchun ishlatiladi). Fonetik shakli deyarli bir xil (miyov – miyav), faqat unli tovush (o~a) farqlanadi. Bu farq ikki tilning fonetik tizimiga bog‘liq bo‘lib, ma’noda hech qanday siljish qilmaydi. Asliyatdagi “miyovlagan” so‘zi tarjimada ham “miyavlayan” shaklida o‘girilib, to‘g‘ri tarjima qilingan.

4) tabiiy tovush hodisalariga yoki jonsiz jismlar tomonidan hosil qilinadigan tovushlarga taqlid qilish: taqillatmoq, qarsillatmoq;

M: “Nuri eshik zanjiriga qo‘l uzatdi, lekin birdan cho‘chib ketdi: “Zanjir jaranglaydi, eshik g‘ijirlaydi”” (Oybek, 2023, 91).

Z. Hamidova tarjimasi: “Nuri kapı zincirineelini uzattı ama birden çok korktu: Zincir şangırdıyacak, kapı gıcırdayacaktı” (Aybek, 2023, 99).

Yuqoridagi misolda “jarangla”–“şangırda” ikkisi ham metallning baland ovozi bildiradi. Farq shundaki, “jarang” tovushida yumshoqlik bor, “şangır” esa

biroz qo‘polroq va balandroq eshitiladi. “g‘ijirla”–“gıcırda” fonetik va semantik jihatdan juda yaqin. “g‘ijir” va “gıcır” tovushlari deyarli bir xil ohangni beradi. Asliyatda tovushlar qo‘rquvni kuchaytiruvchi muhim detal sifatida berilgan. Tarjimada ham bu funksional vazifa to‘liq saqlangan. G‘ijirla- va gıcırda- esa to‘la mos tushadi. Asliyatdagi “jarangla” va “g‘ijirla” onomatopeyalari tarjimada şangırda- va gıcırda- orqali juda muvaffaqiyatli berilgan. Semantik jihatdan ekvivalentlik to‘liq saqlangan, faqat fonetik jihatdan jarangdagi yumshoqlik şangırda keskinroq bo‘yoq olgan.

5) aralash tovushlarga: Xrrr, (uyquda yotgan odam yoki hayvonning chuqur nafas olishiga taqlid qilish).

M: “Mehmonlar shiyponda shohi, atlas, adras ko‘rpalarda, boshlarini oppoq va yumshoq yostiqlarga ko‘mib uxlaydilar, ba’zisi **pishillaydi**, yana birov **xirillaydi**, kimi sekingina burni bilan **hushtak chaladi**. Ba’zilari **xurрак tortadi**” (Oybek, 2023,22).

Z. Hamidova Tarjimasi: “Misafirler dış avluda ipek, atlas, adrasts yorganlarda, başlarını beyaz ve yumuşak yastıklara gömmüş hâlde uyuyor; bazıları **mışıldıyor**, bazıları **hırıldıyor**, bazıları burnuyla sanki hafiften **ışıkçalıyor**, bazıları **dahorluyordu**” (Aybek, 2023,40).

Asliyatdagi tovushga taqlid so‘zlar:

1. **pishillaydi** – mayin, yumshoq nafas chiqarish, ko‘pincha bola yoki charchagan odamning tinch uyquusi bilan bog‘liq.

2. **xirillaydi** – yo‘tal yoki tomoqdagi havo yo‘llari torligi sababli hosil bo‘ladigan xirillash ovozi.

3. **(burni bilan) hushtak chaladi** – burundan chiqqan havo ovozi hushtak ohangigao‘xshash.

4. **xurрак tortadi** – burun va tomoq yo‘llarining to‘silishi sababli hosil bo‘ladigan qattiq uyqu ovozi (horlama).

Tarjimadagi mos ekvivalentlar:

1. **mışıldıyor** – turk tilida mayin uyqu ovozini ifodalaydi, fonetik jihatdan “pishillaydi”ga yaqin, lekin “m” undoshi yumshoqroq ohang beradi.

2. hırıldıyor– xirillash ovozi; bu soʻz asliyatdagi “xirillaydi”ga fonetik va maʼno jihatdan juda yaqin (turkchadagi “hır” vaoʻzbekchadagi “xir” oʻxshash).

3. burnuyla sanki hafiften ılık geliyor – soʻzma-soʻz tarjima; burundan chiqqan ovoz hushtak ohangiga oʻxshash ekanini izohlab berilgan.

4. horluyordu – turk tilida “xurrak otmoq” (horlama) maʼnosida, toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalent.

Tarjima mazmun jihatidan asliyatga toʻliq mos, fonetik jihatdan esa ayrim oʻzgarishlar tildagi tovush tizimi va soʻz boyligi bilan bogʻliq. “Pishillaydi” “mışıldıyor” fonetik yumshoqroq, shu sabab obraz biroz “mayinroq” eshitiladi. “Hushtak chaladi” esa oʻzbekchada ixcham onomatopeya, turkchaga soʻzma-soʻz tarjima qilingan. Qolgan ikki onomatopeya ham (“xirillaydi” va “xurrak tortadi”) deyarli toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalentga ega.

Turkcha taqlid birliklarining inglizchada berilishi mavzusida ish olib borgan rus tadqiqotchisi A.V.Krasnova oʻz dissertatsiyasida reduplikatsiya hisobiga yasalgan turkcha **mışıl mışıl** taqlid birligining ingliz tiliga tarjimada peaktfully leksik sinonimi orqali berilganini tanqid ostiga oladi. Turkcha mikrokontekstdagi **mışıl mışıl** uyumakta birikmasi soʻzma-soʻz tarjimada shunchaki peaktfully shaklida emas, peaktfully snoring asleep, yaʼni “tinch, pishillab nafas olgancha uxlamok” maʼnosiga ega ekanligi, bunday yondashuv asliyat soʻzi ekspressivligini pasaytirishini taʼkidlaydi. A.V.Krasnova “**mışıl mışıl**uyumak” turk tiliga xos taqlid soʻzligi, unga oʻxshagan soʻzlar: mışıldamak – feʼl, mışıl– ot ekanligi, tarjimada uning oddiy feʼllar vositasida berilishi natijasida ekspressivlik yoʻqolishini aytadi (Краснова А., 2015, 193).

Shuni taʼkidlash kerakki, onomatopik soʻzlar turli tillarda bir-biridan farq qilishi mumkin va turli madaniyatlar tovushlarni boshqacha nomlashi vaanglatishi mumkin. Bundan tashqari, bir qator taqlidlar mintaqaviy dialektlarga koʻra bir necha shakl yoki oʻzgarishlarga ham uchrashi mumkin. Umuman olganda, onomatopoeia tilga taʼsirchanlik oʻlchamini qoʻshib, uni yanada dinamik va jozibali qiladi (Bayimbetova M., 2024, 94).

Darhaqiqat, har bir tilning o'ziga xos fonema tizimi bor, shu bois tovushni ifodalashda fonetik imkoniyatlar farqlanadi. Masalan, o'zbek tilida "g'uv" bo'lsa, ingliz tilida bu tovush "whoosh" yoki "whirr" tarzida ifodalanishi mumkin. Tovushni idrok etish va uni so'z bilan ifodalash jarayoni madaniyatga ham bog'liq. Masalan, g'arb tillarida itning ovozi ko'pincha "woof" deb ifodalanadi, turk tilida "hav-hav", o'zbek tilida esa, "vov-vov" shaklida qo'llanadi. Bir tilning o'zida ham mintaqaviy lahja va shevalar onomatopeyalarni turlicha talaffuz qilishi yoki shaklini o'zgartirishi mumkin. Bu hol, masalan, o'zbek tilida "shovqin" va "shuvqin" shakllari bilan uchrashi mumkin. Onomatopeya faqat tovushni ifodalash emas, balki matnga hissiy rang va ta'sirchanlik qo'shish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Adabiyot va og'zaki ijodda ular ritm, ohang va badiiy tasvir kuchini oshiradi.

Oybek asarlarida onomatopeyalar keng qo'llangan bo'lib, ular quyidagi funksiyalarni bajargan:

- Harakat va muhitni eshitish orqali tasvirlash (masalan: shuvillab o'tdi, gumburlab tushdi);
- Ruhiy holat yoki emotsional kayfiyatni yetkazish (g'o'ng'illab, tarillab);
- Jonli dialog yaratish va dramatik vaziyat kuchini oshirish.

Adibning "Qutlug' qon" va "Navoiy" romanidan onomatopeyalarga misollar:

M:– "Xax-xax-xax...– qattiq kuldi Yormat va o'roqni Yo'lchiga tutqizib gapira boshladi." (Oybek, 2023,19).

Zamira Hamidova Tarjimasi: "Ha ha haaaaa! Kahkahayla güldü Yarmat, orağı Yolcu'nun eline verdikten sonra lafa başladı:" (Aybek, 2023, 37).

"Xax-xax-xax" – bu odamning qattiq, jo'shqin, biroz qo'polroq yoki erkin kulgisi taqlididir. "Ha ha haaaaa" – turk tilida eng keng tarqalgan kulgi onomatopeyasi bo'lib, "ha" bo'g'ini tabiiyroq eshitiladi. "Haaaaa" cho'zilishi kulgining davomiyligini va kuchliligini ifodalaydi. Qo'shimcha sifatida tarjimon Z. Hamidova tarjimasida kahkahayla (ya'ni "qahqaha bilan") deya berilgan, bu esa kulgining xususiyatini yanada aniqroq bildiradi.

M: “Issiq tobora ortar, «g‘ir» etgan shamol yo‘q” (Oybek, 2023,3).

Tarjimasi: “Havada hech esinti yoktu üstelik sıcak da gitgideartıyordu” (Aybek, 2023, 23).

“G‘ir” onomatopeyasi shamolning kutilmaganda chiqadigan qisqa, keskin tovushini ifodalaydi. Turkcha tarjimada esa shamolning tovushi (onomatopeya) butunlay tushirib qoldirilgan. Faqatgina “hech esinti yoktu” (“hech qanday esinti yo‘q edi”) iborasi orqali oddiy tavsif berilgan. Asliyatdagi “g‘ir” onomatopeyasi shamolning tovushini jonli va sezgir tarzda ifodalagan. Tarjimada esa bu tovush oddiy tavsif (“hech esinti yoktu”) bilan almashtirilgan, natijada fonetik obraz va hissiy ta’sir kamaygan. Shu bois, semantik jihatdan mos kelsa-da, badiiylik darajasi pasaygan.

M: “Nihoyat, shang‘i samovarchi jo‘mrangi uchiga jez qoplangan choynakni va bir piyolani yigitning oldiga do‘q etib qo‘yib ketdi” (Oybek, 2023, 5), **Tarjimasi:** “Nihayet geveze semaverci, emziğinin ucu metal kaplanmış çaydanlığı ve rengi solmuş piyaleyi oturan yiğidin önüne“tak” diye bıraktı” (Aybek, 2023, 24), **M:** “O‘ralib-chaplashib o‘sgan qalin maysani «shar-shar» yiqib borar ekan, o‘zi ham zavqlandi” (Oybek, 2023, 20). **Tarjimasi:** “Birbirine sarılmış kalın otu biçerken kendisi de çok zevk aldı” (Aybek, 2023, 38), **M:** “Allaqanday mayin, muloyim jimjitlikni atrofda sigir, buzoqlarning ma‘rashi, daraxtlar orasidan qushlarning ora-sira yangrab, yana bir zumda tingan sayrashi seskantiradi” (Oybek, 2023, 21), **Tarjimasi:** “Köye sinen hafif, tatlı sessizliği etraftaki sığırların, buzağların melemesi ve ağaçların arasından kuşların ara sıra duyulup yine bir anda kesilen ötüşleri bozuyordu” (Aybek, 2023, 38).

Jonsiz predmetlar tovushiga taqlid so‘zlarni ham quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

- 1) qattiq va yumshoq jismlar tovushiga taqlid so‘zlar;
- 2) suyuq va gazsimon jismlar tovushiga taqlid so‘zlar;
- 3) har xil mexanizmlar tovushlariga taqlid so‘zlar;
- 4) tabiat hodisalariga bog‘liq tovushlarga taqlid so‘zlar kabi guruhlariga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin.

Bu guruhlarga bo‘lish ham jonsiz predmetlar tovushiga taqlid so‘zlarni hammasini qamrab olish imkonini bermasligi mumkin. Chunki borliqda turfa xil jonsiz predmetlar bo‘lib, ular tuzilishi va hajmi kabi farqli jihatlari mavjud (Nuraliyev G., 2024,101).

1. Tilimizda qattiq va yumshoq jismlarning tovushlariga taqlid qiluvchi birliklarning aksariyati inson faoliyati natijasida paydo bo‘ladigan tovushlarga asoslanadi va ular lisoniy ahamiyatga ega taqlidiy so‘zlarning shakllanishida muhim manba hisoblanadi. **M:** “Ko‘p o‘tmasdan nariroqda eshik g‘ijirladi va cholning ovozi eshitildi” (Oybek, 2004, 33-34), **Tarjimasi:** “Çok geçmeden gerideki kapı bir cızırtıyla açıldı ve ihtiyarın sesi işitildi” (Aybek, 1995, 27), **M:** “Yuk tashigan aravalarning gumburlashi, tuyalarning allaqanday qaysarlik va zarda bilan baqirishi, og‘ir karvon fillarining haybatli lapanglashi, ishboshilarning keskin qichqirishlari Arslonqulni ancha esankiratdi” (Oybek, 2004, 202). **Tarjimasi:** “Yük arabalarının gürültüsü, develerin alabildiğince inatla böğürüşten, ağır iş fillerinin inilteleri, ustabaşların yüksek sesle bağrımları Arslankul’u şaşkına çevirmişti” (Aybek, 1995, 187). **M:** “Tuprog‘i bilq-bilq ko‘chadan arobaning asablarni parmalaydigan g‘ijiri eshitilardi” (Oybek, 2004, 336) **Tarjimasi:** “Gevşek kumlu yoldan geçen bir arabanın tekerlerinin hazin gıcirtısı işitiliyordu” (Aybek, 1995, 315). Taraq-turuq, qasir-qusur kabi juft tovushga taqlid so‘zlarda unli tovushlarning almashishi natijasida taqlid so‘z juftida yangi ma‘naviy ottenka hosil bo‘lishi kuzatiladi.

2. Tilimizdagi suyuq va gazsimon jismlar tovushiga taqlid qiluvchi birliklar ham alohida semantik guruhni tashkil etib, odatda bir bo‘g‘inli shaklda namoyon bo‘ladi. **M:** “Husayn Boyqaro tovoqni ko‘tarib, qatiqni chinakam ishtaha, to‘g‘risi, samimiy niyat bilan xo‘r-xo‘r ichar ekan, darvesh g‘or og‘ziga cho‘qqayib, jovray boshladi” (Oybek, 2004, 108). **Tarjimasi:** “Hüseyin Baykara kâseyi kaldırıp samimî bir niyetle ve büyük bir iştaha ile “hör-hör” yerken derviş de mağaraağzına çömelererek dua etmeye başladı” (Aybek, 1995, 98), **M:** “Dildor piq-piq yig‘lab, boshini quyu soldi” (Oybek, 2004, 119) **Tarjimasi:** “Dildâr pık-pık ağlayarak başını önüne eğdi” (Aybek, 1995, 109) kabi.

3. Mexanizmlar tovushlariga oid taqlidiy soʻzlar ham ichki tasnifga ega boʻlib, ular mashinalar, oʻq otar qurollar hamda turli texnik vositalar ovozi ifodalovchi guruhlariga ajratiladi. Ushbu qatlamda ikki boʻgʻinli birliklar koʻplab namoyon boʻladi. **M:** “Ular tizzalariga urilgan qilichlarini sharaqlatib yugura qolishdi” (Oybek, 2004, 451) **A.Botur Tarjimasi:** “Kılıçlarını şakırdatarak çekip gittiler” (Aybek, 1995, 426). Bunday misollarni juda koʻp keltirish mumkin, boisi, bugungi kunda kundalik hayotimizda texnik vositalarning oʻrni juda katta boʻlib, turlari ham koʻp. Ular chiqaradigan tovushlar bilan bogʻliq boʻlgan taqlid soʻzlar ham Oybek asarlarida salmoqli boʻlishi tabiiydir.

4. Tabiat hodisalari bilan bogʻliq tovushlarga oid taqlidiy birliklar tilimizda keng tarqalgan boʻlib, ular, odatda, yomgʻir, qor yogʻishi va shamol kabi tabiiy jarayonlarni ifodalaydi. **M:** “Kampir charxning “gʻuv-gʻuvi” va suvning sharqirashidan uning ovozi eshitmadi” (Oybek, 2004, 60). **A.Botur tarjimasi:** “Yaşlı kadın kirmenin “guv-guv” sesinden ve suyun şırıltısından onun sesini işitmemişti” (Aybek, 1995, 51). **M:** “Oʻqtin-oʻqtin yomgʻir quyib, sharillagan suvlar tarnovlarni qoʻporib tushiradi” (Oybek, 2004, 233). **Tarjimasi:** “Sağnak halinde yağan yağmur ve gürül gürül akan sel suları çörtenlerden aşağı süzülmekte” (Aybek, 1995, 216).

Badiiy adabiyotda, ogʻzaki nutqda tabiatdagi predmetlarning harakat-holat obrazidagi va ular tovushidagi har xillikni koʻrsatish maqsadida koʻpincha juft tasviri soʻzlarga murojaat qilinadi. Tasviri soʻzlarning ana shu xususiyatlariga asoslanib, E. I. Ubratova ularning ohangdosh boʻlish yoʻli bilan takrorlanishini koʻproq badiiy ifodalilik maqsadlariga boʻysundirilganligini koʻrsatadi (Убрятова Е., 1948, 822).

Bundan tashqari yana koʻpgina misollar keltirishimiz mumkin: “Kapının lang açık olmasına, dışarda bahar güneşi pırıl pırıl parlamasına rağmen bu hücre her zaman yarı karanlık durumunu muhafaza ederdi” (Aybek, 1995, 6), “Yolluk üzerineyanlamasına uzanan Dârâ, yanibaşmdan şakırdayarak akıp, güllerarasından geçerek, uzakta, havanın ılık nefesi altında tadı bir uykuya dalmış gibi görünen kavak ağaçları arasında parıltılar saçarak gözden kaybolan suyu seyretmeye başladı”

(Aybek, 1995, 186), “Kocaavluda rüzgârın etkisiyle yalpalanan ağaçların hışırtısından başka ses yoktu” (Aybek, 1995, 34), “Alim, inançlı bir şekilde bftşını yukarı kaldırmış, yukarılarda bahar taşkının hoş havasıylaakan mutluluğu teneffüs ederek, vıcık vıcık çamurla kaplı yollardaadeta kuş gibi uçuyordu” (Aybek, 1995, 442).

Oybek asarlari badiiy matn sifatida o‘z davrining ruhini, xalqning turmush tarzi va ruhiy olamini jonli tasvirlashda onomatopeyalardan keng foydalanganligi bilan ajralib turadi. Uning “Qutlug‘ qon”, “Navoiy” kabi romanlarida turli tovush va holatlarni ifodalovchi taqlidiy so‘zlar – xax-xax-xax, pishillamoq, xirillamoq, xurrak tortmoq, shov-shuv, g‘uv, qars-qars, shar-shar, qiy-chuv va boshqalar – qahramon ruhiyati, voqeaning dinamizmi va tasvirning jonliligi uchun xizmat qiladi.

Tarjimalarda esa ushbu onomatopeyalar: bir qismi fonetik jihatdan mos ekvivalentlar bilan beriladi (xirillaydi → hırıldıyor, xurrak tortadi → horlamak); ba’zilari fonetik yumshatish orqali ifodalanadi (pishillaydi → mışıldıyor, xax-xax-xax → ha ha haaaa), bu esa badiiy ohangni biroz o‘zgartiradi; ba’zilari esa tasviriy iboralar yordamida tarjima qilinadi (hushtak chaladi → burnuyla hafiften ısılk çalıyor) bunda ixchamlik yo‘qoladi, ammo ma’no saqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Oybek asarlarida onomatopeya vositalari asarning badiiy yuksakligini ta’minlovchi asosiy elementlardan biri sifatida xizmat qiladi. Ular orqali muhit, harakat va holatlar eshitiladigan tasvirga aylanadi. Ularning tarjimasida esa semantik to‘g‘rilik bilan birga, uslubiy va madaniy sadoqatni ta’minlash muhim. Buning uchun tarjimon fonetik yaqinlikdan tashqari, asliyatdagi obraz va emotsionallikni chuqur anglab, funksional jihatdan mos birlik tanlashi zarur hisoblanadi.

Oybek asarlari misolida tovushga taqlid so‘zlarning qisqa tasnifi tuzildi. Bunday so‘zlar yozuvchi ijodida ko‘p uchrashi bilan birga, ularning shakllanishiga asos bo‘lgan jonli va jonsiz predmetlar ham juda xilma-xildir. Shu sababli, keltirilgan tasnifda ayrim predmetlar qamrab olinmay qolgan bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aybek M.T. Nevai. Çeviren Ahsan Botur. – İstanbul: Ötüken, 1995.
2. Bayimbetova M. Onomatopoeia in the english language. Журнал иностранных языков и лингвистики. – Nukus, 2024. – 94-96 p.
3. Добровольский В. Н. Звукоподражание в народном языке и в народной поэзии. – М., 1894.
4. Кононов А. Н. Грамматика узбекского языка. – Ташкент, 1948.
5. Краснова А.В. Перевод звукоизобразительной лексики турецкого языка средствами английского языка (на материале произведений Ферита Орхана Памука) / А.В.Краснова // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С.Пушкина. Научный журнал, №1, Том 7. Филология, 2015. – С. 193-207.
6. MusaAybek. KutluKan. Çeviren Zamira Öztürk (Hamidova). – Ankara: Bengü, 2023.
7. Nuraliyev G‘. Tovushga taqlid so‘zlar tadqiqi (Tog‘ay Murod asarlari misolida). – Samarqand, 2024.
8. Oybek. Qutlug‘ qon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023.
9. Oybek. Navoiy./“Asr oshgan asarlar” turkumi// Tahrir hay’ati: Bobir Alimov va b. –Toshkent: Sharq, 2004.
10. Убрятова Е. И. Парные слова в якутском языке. Язык и мышление. – М., 1948.
11. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966.

REFERENCES

1. Aybek, M. (2023). Kutlu Kan (Z. Öztürk (Hamidova), Trans.). Ankara: Bengü.
2. Aybek, M. T. (1995). Navoi (A. Botur, Trans.). İstanbul: Ötüken.
3. Bayimbetova, M. (2024). Onomatopoeia in the English language. Journal of Foreign Languages and Linguistics, Nukus.
4. Dobrovolsky, V. N. (1894). Onomatopoeia in folk language and folk poetry. Moscow.

5. Krasnova, A. V. (2015). Translation of sound-imitative vocabulary of the Turkish language into English (based on the works of Ferit Orhan Pamuk). Vestnik of Leningrad State University named after A. S. Pushkin. Scientific Journal, 7(1).
6. Kononov, A. N. (1948). Grammar of the Uzbek language. Tashkent.
7. Nuraliyev, G'. (2024). Research on onomatopoeic words (On the example of Tog'ay Murod's works). Samarqand.
8. Oybek. (2004). Navoi ("Asr oshgan asarlar" series; B. Alimov et al., Eds.). Tashkent: Sharq.
9. Oybek. (2023). Qutlug' qon. Tashkent: G'afur G'ulom.
10. Qonqurov, R. (1966). Descriptive words in the Uzbek language. Tashkent: Fan.
11. Ubryatova, E. I. (1948). Paired words in the Yakut language. In Language and Thinking. Moscow.